



UDK: 835 (09) 146

Siroj RO'ZIMURODOV,
SamISI, ijtimoiy fanlar kafedrası kafedrası (PhD) dotsenti
E-mail: rozimurodov86@mail.ru

SamISI, ijtimoiy fanlar kafedrası (PhD) dotsenti Sh.Hoshimov taqrizi asosida

MAHALLADA YOSHLARNI SOG'LOM MUHITNI YUKSALTIRISHNING TARIXIY – AXLOQIY ASOSLAR

Аннотация

Mazkur maqolada jamiyatimizda mahalla instituti yosh avlodni tarbiyalash borasidagi vazifalar yoritilgan. Oila va mahallani davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bejiz emasligi ko'rsatib o'tilgan. Sag'lom ona, sog'lom bola va sog'lom jamiyat kansepsiyasining amaldagi natijasini bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, oila, axloqiy-estetik tarbiya, globallashtirish, reproduktiv, axloqiy qadriyatlar, sog'lom farzand, go'zallik, an'ana.

HISTORICAL AND ETHICAL FOUNDATIONS OF CREATING A HEALTHY ENVIRONMENT FOR YOUNG PEOPLE IN THE NEIGHBORHOOD

Annotation

This article describes the tasks of the family and neighborhood institution in the education of the young generation in our country. It has been shown that it is not for nothing that the family and neighborhood have been raised to the level of state policy. The practical result of the concept of healthy mother, healthy child and healthy society is highlighted in today's importance.

Key words: Family, neighborhood, moral-aesthetic upbringing, globalization, reproductive, moral values, healthy child, beauty, tradition.

ИСТОРИКО – ЭТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ЗДОРОВОЙ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ ПО СОСЕДСТВУ

Аннотация

В данной статье описаны задачи института семьи и соседства в воспитании подрастающего поколения в нашей стране. Показано, что недаром семья и соседство возведены в ранг государственной политики. В сегодняшней важности подчеркивается практический результат концепции здоровой матери, здорового ребенка и здорового общества.

Ключевые слова: Семья, соседство, нравственно-эстетическое воспитание, глобализация, репродуктивность, нравственные ценности, здоровый ребенок, красота, традиция.

Jamiyat sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib, taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Chunki, tinchlik va sog'lik bu har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir. Faqat sog'lom inson va sog'lom xalk mislsiz ishlarga kodiriligini hammamiz yaxshi anglaymiz"[1-382] – deb ta'kidlaydi.

Bizga tarixdan ma'lumki sog'lom turmush tarzini rivojlantirish borasidagi ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy g'oyalar Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nosir Forobiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad YAssaviy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ma'naviy va jismoniy salomatlik ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Tibbiyot ilmining otasi Gippokrat "Insonning faoliyati qanday bo'lsa, uning o'zi ham, tabiati ham, kasalliklari ham shunday" deb ta'kidlab, insoniyatning sog'ligi va kasalligini uning turmush tarzi, fikrlash doirasi, o'zini tuta bilishi kabilarni o'rganish orqali bilib olish mumkin ekanligini ko'rsatib o'tgan edi. Gippokrat «Sog'lom turmush tarzi haqida» nomli risolasida bu fenomenni tibbiy nuqtai nazaridan qarab chiqib "insonning estetik tuyg'ulari va jismoniy salomatligiga, shu bilan birga, tashqi muhit omillari iqlim,

tuproq, suv, kishilarning hayot yo'li, mamlakat qonunlari va boshqalarni odamga, unda jismoniy va ruhiy xususiyatlarning shakllanish ta'siriga bog'lab tushuntiradi" [2] deb F.Asmusning ta'kidlashicha, "Demokrit sog'lom turmush tarzi haqida fikr yuritganda, birinchi galda moddiy ehtiyojlarni qondirish haqidagi g'oyani ilgari suradi, ularni jamiyat taraqqiyotida ro'y beradigan estetik o'zgarishlarning tub sababchisi deb hisoblaydi, jamiyat rivojlanishiga olib keladigan o'zgarishlarning moddiy sabablari esa manfaatni anglab yetish bilan uyg'un holda ro'y beradi" [3], degan xulosaga kelgan. Demak turmush tarzi inson faoliyatining shunday – "tayanch nuqtasiki", tibbiyot ilmi unga tayangan holda, odamlar salomatligini tubdan yaxshilashga erishishga yo'l topadi.

Umuman olganda sog'lom turmush tarzi bu hayot kechirishning maqsadga muvofiq ravishda tashkil etishni, umr qadrini anglab etishni nazarda tutadi. Sog'lom turmush tarzi yomon illatlar bilan kelisha olmas ekan, oilaviy sharoitni yaxshilash, ya'ni undagi ma'naviy-psixologik muhitni barqarorlashtirish muhim vazifalardan bo'lib qolaveradi. Shu tufayli ham odamlarga nafaqat davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining, balki oilaning dolzarb muammosi ekanligini fuqarolar ongiga etkazish lozim.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Biz mustaqilligimizning ilk yillaridanog sog'lom avlod tarbiyasini eng ustuvor vazifa deb belgiladik. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardik»[4]. Mustaqillik yillari davomida

mamlakatimizda sog'lom avlod g'oyasi asosidagi davlat siyosati bosqichma-bosqich rejalashtirilgan, maqsadli va manzilli tarzda amalga oshirildi. Uning amalga oshirilishi jarayoni muntazam moddiy, moliyaviy hamda eng ilg'or moddiy-texnik baza bilan ta'minlandi. Sog'lom avlod g'oyasi o'z mazmuniga: yangidan barpo etilayotgan demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida inson qadriyatlarini ustuvor anglash; millat genofondini sog'lom saqlash va e'zozlash; sog'lom avlod g'oyasini targ'ib va tashviq qilish; uning amalda joriy etilishi uchun moddiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tibbiy va pedagogik omillarni va shartsharoitlarni ta'minlash; o'sib kelayotgan avlodni sog'lom tafakkur egasiga aylantirish uchun, uning sog'lom turmush tarzi asosida hayot kechirishiga zamin tayyorlash uchun mamlakat miqyosida sog'lomlashtirish infrastrukturasini (tibbiy, ijtimoiy, sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport) yaratish; inson omilini tibbiy, ekologik, mafkuraviy, informatsion huruj va tahdidlardan muhofaza qilish tizimini tashkil qilish; jismoniy tarbiya va sportni yoshlar salomatligini mustahkamlash tizimi sifatida qarash hamda mamlakatning har bir hududida uning keng tarqalgan infrastrukturasini yaratish kabi ma'lamlarni qamrab oldi.

Darhaqiqat, mahallada va oilada turmush tarzini sog'lomligi kishilarni jamiyatda egallab turgan sotsial statuslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki turmush tarzi kishilarning ma'naviy dunyosi bilan ham uzviy bog'liqdir va ularning fikrlash tuyg'usi borasida ham muhim o'rin tutadi. Kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar ma'lum darajada sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning axloqiy-estetik qarashlari, xulqi, muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari, ularning ichki dunyosiga, e'tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a'zolarining ijtimoiy mehnati, o'zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushidagi faolligi, kishilarning jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini atrofda tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo'lishidir.

Bundan tashqari mahallada sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali jamiyatimiz a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalash ham muhim axamiyatga ega. Hozirgi davrda yoshlarni uzoq boy ma'naviy merosimizga bo'lgan madaniyatimizni yuksaltirishda mahallada va oiladagi sog'lom turmush tarzi o'z ta'sirini ko'rsatadi. mana shularni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan mahallada sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni takomillashtirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy jihatlarini o'zida aks ettiradi va bu oiladagi sog'lom muhitni belgilaydi. "Sog'lom tanda sog' aql" degan xalqimizning ulug' bir naqli bor. Har bir odam sog'lom bo'lsagina yaxshi mehnat qilishi, ilhom bilan ijod qalamini tebrata olishi, egan luqmasi taniga singishi, tiniqib, uxlay olishini bilsa-da, o'sha sog' holatni saqlash, ham vujudga, ham aqlga, ham ruhga o'z vaqtida madad berib turish kerakligini, bu faqat o'zimizning manfaatimizga aloqadorligini ba'zan unitib ham qo'yamiz.

Demak, tani sog'liq xalqimiz uchun eng muhim qadriyatlardan bo'lishi bilan birgalikda u har birimizning dunyoqarashimiz, falsafamiz, mafkuramizning, oqilona turmush tarzimizning ajralmas bo'lagi bo'lmog'i dardkor. SHu bois ham davlat dasturining bandlarini sinchiklab o'rganar

ekanmiz, unda har bir shaxsning o'z salomatligini saqlashga to'g'ri va mas'uliyatli munosabatda bo'lishi, sog'lom turmush tarzini eng avvalo o'zi, qolaversa yaqinlari uchun tashkil etishga bog'liq shart-sharoitlar o'z ifodaini topganligining guvohi bo'lamiz.

Mahalladagi ota-onalarga ko'p narsa bog'liq. Ular oiladagi barcha hodisalarning balogardonlari sifatida eng avvalo o'z sog'liqlariga o'zlari mas'ul ekanliklarini unutmasalar, uni saqlashda barcha ehtiyoj choralari o'z vaqtida ko'rgani holda oilaviy hayotga to'g'ri munosabatni shakllantira olsalar, murod-maqsdlariga albatta erishadilar. Sog'lom odam, u otami, yoki onami, turmush va ro'zg'ordagi barcha past-balanliklar, turli vaziyatlar, kerak bo'lsa, qiyinchiliklarga tez moslashib, ulardan oqilona chiqish yo'llarini bilishi kerak. Oddiy oila muhitida bir narsadan toliqqanda yoki asab buzilganda, dardimizni aytadigan hamdard, yaqin kishimiz bo'lgani ma'qul. Ana shunday hayotiy falsafa va yo'nalish bilan yashagan inson albatta, baxtli va sog'-salomat bo'ladi. Muhimi, bunday hayotiy mo'ljallar, jismoniy va ruhiy tetiklik, bardamlilik u tarbiyalayotgan bolalarning baxti va kelajakka intilishiga ishonchli zamin bo'ladi. Ana shunday ota-ona tarbiyalagan farzandlarga ortiqcha o'gitlar, tarbiyaviy tazyiqlar dardkor emasligini ta'kidlash kerak. Chunki inson aqlini, uning tafakkurini peshlaydigan, tanini sog', vujudini go'zal qiladigan ma'naviy ozuqani oilasida olgan farzandning o'z baxti va kamoli yo'lidan og'ib ketishiga ishonish qiyin.

Bizga ma'lumki Amir Temur farzandlari va nabiralari oila qurishiga alohida e'tibor berganligi hamda bu sohada o'zini nozik didiga ishonganligi bu o'sha davr tarixchilar tomonidan aytilgan edi. Oila qurayotgan yoshlarni tashqi go'zalligidan tashqari ularni ichki dunyosi hamda aqlini teranligiga ham alohida e'tibor bergan. Shuni oqibatida Amir Temur davrida davlat ishlaridagi ko'plab muammolarni oldi olingani tarixda ma'lum. Hozirda ham oila qurishda ayrim ota-onalar shu kabi munosabatlar farzandlarni oila qurishda o'zlarini shaxsiy tashabbuslari bilan quriladi. Agar o'sha ota-onani dunyo qarashi kengroq bo'lsa yaxshi lekin buni teskarisi bo'lsa ko'plab nosog'lom munosabatlarni shakllanishiga olib kelish bilan birga atrofida gilarining ichki ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir qiladi.

Hozirda dunyoda ko'plab hududlarda notinchlik, urushlar va janjallarning saqlanib qolayotganligi nosog'lom muhitning shakllanishiga olib kelmoqda. Natijada jamiyatda turli ko'ngilsizliklar ortib bormoqda. Chetdan turib g'arazli manfaatdor kuchlarning ta'sir ko'rsatayotganligi ijtimoiy – siyosiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek "yaqin mingyillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas intellektual ya'ni ma'naviy-ma'rifiy boyligi hal etadi" [1]. Bunday holatlarga erishish uchun yurtimizda sog'lom muhit va sog'lom turmushning o'rni katta.

Xulosa o'rmda shuni ta'kidlaymizki yoshlarning sog'lom turmush kechirishi o'zaro munosabatlarga bog'liq ekanligini uqtirganlar. Insonda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish orqali sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish, biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, atrof-muhit musaffoligini saqlash, shaxsiy gigiena talablariga rioya etish, turli zararli odatlarning inson salomatligiga ta'siri va uning oldini olish, xalq tabobatining jismoniy va ma'naviy salomatlikka ta'siri juda kata ekanligini ta'kidlaganlar. Xalqning asrlardan asrlarga meros bo'lgan axloqiy tarbiyasi bugungi kunda yoshlarni tarbiyalashda, ular ongida adoldtli, vatanparvar qilib tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев.Ш.М Ўзбекистон соғлиқни сақлаш соҳаси ходимларига // Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Т. 4. Т.: „Ўзбекистон“, 2020, 382-бет.
2. О'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3 - jild. –T.: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - B. 28.

3. Асмус В.Ф. Античная философия.-М.:Высшая школа, 1999, - С.118-119.
4. Karimov I. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1999-yil. 8- dekabr.
5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot piraovard maqsadimiz. –T.:O'zbekiston. 2000. – B.438.